

ZAMONAVIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO PEDAGOGIK INTEGRATSION HAMKORLIKNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНТЕГРИРОВАННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL PEDAGOGICAL INTEGRATION COOPERATION IN IMPROVING THE QUALITY OF MODERN EDUCATION

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi.
Karimov T.X.

Самаркандский институт экономики и сервиса, кафедра информационных технологий, преподаватель. Каримов Т.Х.

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik integratsion hamkorlikning ahamiyati Yevropada tashkil qilingan "Boloniya kelishuvi" asosida misolida aniq ko'rsatib o'tilgan va Respublikamizda bu yo'nalishda qilinayotgan ishlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, xalqaro hamkorlik, ta'lim sifati, Boloniya kelishuvi, kredit tizimi, baholash mezoni, Binar dars, Vebinar, kredit modul, masofaviy ta'lim, online ta'lim, bilim, ko'nikma, didaktika, yondashuv, dialektika.

Аннотация. В настоящей статье четко отображается значимость международного педагогического интеграционного сотрудничества в повышении качества образования на сегодняшний день на основе "Болонского соглашения", организованного в Европе, а также приведены работы, выполняемые в нашей республике по данному направлению.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, международное сотрудничество, качество образования, Болонское соглашение, кредитная система, критерий оценки, бинарный урок, вебинар, кредитный модуль, дистанционное образование, онлайн образование, знание, навыки, дидактика, подход, диалектика.

Abstract. In this article it's clearly reflected importance of international pedagogical integration cooperation in improving the quality of education for nowadays on the basis of the "Bologna Agreement" organized in Europe, as well as the work performed in our republic in this direction.

Keywords: interdisciplinary integration, international cooperation, quality of education, Bologna Agreement, credit system, assessment criteria, binary lesson, webinar, credit module, distance education, online education, knowledge, skills, didactics, approach, dialectics.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so'ng jahonda o'z obro'yini oshirish uchun jahon andozalari talabiga javob beradigan mahsulotlar va milliy kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berishmoqda. Shuning uchun xalq xo'jaligining barcha sohalarida, jumladan ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan va rahbarligida ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan ko'plab qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va buyruqlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Misol sifatida, yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunni yoki 2019-yil 17-iyundagi Prezidentimizning "2019-2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan

takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorini olishimiz mumkin. Ushbu qarorda 2021-2022 o'quv yilidan boshlab universitet miqyosida kredit modul tizimi joriy qilish nazarda tutilgan. Xuddi shuningdek Davlatimiz rahbari farmoni asosida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham kredit modul tizimi joriy etilgan OTMLar sonini bosqichma bosqich oshirib borish belgilangan. Bugungi kunda dunyodagi barcha mamalakatlarning ta'lim tizimi o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda va ana shu maqsadda har xil davlat va nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shunday ta'lim tizimlaridan biri Yevropada 48 ta mamlakat ishtirok etadigan "Boloniya kelishuvi" yoki "Boloniya jarayoni" ta'lim tizimidir. Ushbu maqolada biz ta'lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik tadqiqotlarning ahamiyatini oliy ta'limda xalqaro integratsiyalashuv misolida ko'rib o'tamiz. Ma'lumki, Boloniya kelishuvi yagona oliy ta'lim maqomini yaratishga qaratilgan bo'lib, Yevropa mamlakatlari o'quv yurtlarini bir-biriga uyg'unlashtirish, umumiyevropa mehnat bozori uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabaga esa xalqaro ta'limga to'siqlarsiz kirish imkonini yaratadi. Boloniya deklaratsiyasi 1999-yilda 29 ta mamlakat vakili tomonidan imzolangan bo'lsa, hozirgi vaqtda 48 ta davlat ushbu jarayon ishtirokchisi hisoblanadi. Qayd etish o'rinliki, Boloniya jarayoniga qo'shilish umumiy ta'lim tizimini rivojlantirish va uning xalqaro miqyosda tan olinishi yo'lidagi muhim qadamdir.

Chunki oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlanishini ilg'or xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yishi maqsadida o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kredit-modul tizimini joriy etish davr talabi bo'lib kelmoqda. Boloniya jarayoniga kirish milliy oliy ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bunda oliy ta'lim to'g'risidagi umumiyevropa diplom ilovasi joriy qilinadi. Kreditlarni o'tkazish va jamg'arishning Yevropa tizimi (ECTS-European Credit Transfer and Accumulation System), ya'ni talabalar o'zlashtirgan bilim va malakalarni hisobga olishning umumiyevropa tizimiga o'tiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish uchun yagona umumiyevropa baholash mezonlari qo'llaniladi va o'qitish sifati yaxshilanadi, ekvivalent ta'lim dasturlari, akademik darajalar joriy qilinadi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayadi. Modulli o'qitish texnologiyasini qo'llashning yana bir xususiyati shundan iboratki, talaba bir modulni o'zlashtirmasdan ikkinchisiga o'ta olmaydi. Ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarda yangi ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalarning mustaqil ravishda bilim olish madaniyatini shakllantirish masalalari dolzarb bo'ladi. Darslar sifatini oshirish talabi zamonaviy uslublardan foydalanishga ehtiyojni oshiradi. Boloniya kelishuvi ta'lim tizimining ijobiy xususiyatlaridan biri undagi binar va Vebinar darslarning mavjudligidir.

Binar dars deganda, muayyan mavzuning ikki o'qituvchi yoki o'qituvchi va bir amaliy soha vakili tomonidan hamkorlikda o'tilishi tushuniladi. Bunda dars beruvchilar nafaqat o'zaro, balki auditoriya bilan ham muloqatda bo'lib, mavzuning har tomonlama ko'rib chiqilishiga imkon yaratiladi. Binar darslar muqobil fikrlarning bayon etilishi, bahs-munozara yuritishning odobi shakllanishi, ma'lumotni faolroq qabul qilishga yo'l ochishi nuqtai nazaridan samarali pedagogik uslubdir.

Vebinar esa dars, maslahat, suhbat, taqdimot jarayonlarining internet orqali onlayn ravishda o'tkazilishidir. Uning asosiy xususiyati interfaollik bo'lib, real vaqt rejimida o'zaro ma'lumot almashish, uni tahlil qilish va qayta ishlash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ham Boloniya jarayonining ayrim shartlari bajarilgan. Misol uchun, bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tilgan. Navbatdagi bosqichda kreditlar to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimini qo'llash

qoidalari, talabalar, pedagog va ma'muriy xodimlar harakatchanligini amalga oshirish mexanizmlari, milliy hamda tarmoq malaka tizimlari (kvalifikatsiya raqamlari) ishlab chiqilmoqda. Ta'lim sohasining ekspertlari O'zbekistonning Bolonya jarayoniga qo'shilishini ijobiy baholab, u milliy oliy ta'lim tizimining jahon amaliyoti bilan uyg'un rivojlanishi hamda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlashmoqda. Shuningdek, bu yurtimizda bir qator masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kadrlar tayyorlash, yoshlarning Yevropa ta'limiga kirib borishlarini yengillashtirish va milliy ta'lim tizimlarini o'zaro yaqinlashtirish, xalqaro ta'lim maqomida mutaxassislar tayyorlash darajasini tenglashtirish, kredit tizimini joriy qilish va talabalar diplomiga umumiyevropa namunasidagi ilovalarni berish, oliy ta'lim sohasidagi faoliyatini davlatlararo muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ta'limning yangi sifat darajasiga o'tish, uning samaradorligini oshirish va ta'lim olishni osonlashtirish, shuningdek, akademik birdamlik va o'zaro yordam asosida ilmiy maktablar hamda ta'lim tizimlari o'rtasidagi raqobatni rag'batlantirish shular sirasidan.

Tadqiqotlar, talabalar onlayn ta'lim olganlarida auditoriyadagi ta'limga nisbatan 25-60 % ko'proq materialni o'zlashtira olganliklarini, buning uchun 40-60 % kamroq vaqt sarflaganlarini ko'rsatmoqda. Chunki ta'limning ushbu turida talaba o'z ta'lim tartibini o'zi shakllantirishi, ma'lumotlarni o'ziga ma'qul sharoitda o'zlashtirishi mumkin bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar izchil hayotga tadbiiq etib kelinayotgan mamlakatimizning oliygohlarida yurtga tayanch va suyanch bo'ladigan, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan salohiyatli yoshlarni tayyorlashda xalqaro integratsion ta'limning roli kundan-kunga oshib bormoqda. Demak, ta'lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik hamkorlikning ahamiyati juda katta, chunki bu hamkorlikning hammasini natijalari integratsiyalanib ta'lim sohasiga qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.

2. Abdullayeva B. S. "Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari". Ped. fan. dok. dis.–Toshkent., Uz PFITI. 2006.-164 b.

3. Toshev, Solejon Ahmatjonovich. (2020). O'zbekiston sovet mustamlakachilik davri tarixining Turkiyada o'rganilishi. O'tmishga nazar.2(2-maxsus son). 347-353

4. Каримов Т.Х. Средства И Методы Инновационного Менеджмента Инновационными Стартапами. Министерство науки и высшего образования Российская Федерация ФГБОУ ВО «Удмуртский государственный университет» Институт экономики и управления технологическое и социальное предпринимательство. 21.11.2023 года Международной научно-практической конференции.

5. T. X. Karimov Improving Digital Platforms On The Public Procurement Market In The Modern Russian Economy. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:02 Issue:07|2023 www.bjisrd.com

6. T. X. Karimov Development Status and Prospects of Telemedicine Technologies BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2Issue:6|2023 www.bjisrd.com

7. T. X. Karimov Theoretical Aspect of Technologies of Teaching a Foreign Language as a Second Language. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2Issue:6|2023

www.bjisrd.com

8. Karimov Tolmasbek Xolmo'min o'g'li BARMOQ IZI YORDAMIDA DAVOMATNI ANIQLASH TIZIMI. IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA JURNALI, 2(1), 6–9. Retrieved from

<https://mudarrisziyo.uz/index.php/iqtisodiyot/article/view/201>